

2025-yil, fevral 4-son



Til va adabiyot.uz

ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

«Til va adabiyot – Преподавание языка и литературы – Language and literature teaching» (e-mail: tilvaadabiyotuz@gmail.com) <https://oak.uz/pages/4802>



**BUYUK SHOIR, QOMUSIY OLIM,
DAVLAT ARBOBI VA MOHIR SARKARDA
ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR
TAVALLUDINING 542 YILLIGI**

ILG'OR PEDAGOGIK TEKNOLOGIYA

Muxlisa Sabirova. Internet mediamatni sarlavhalarida metaforalarning o'rni	59
Zulfiyaxon Masodiqova. Oliy ta'limda nemis tili darslarida kompyuter texnologiyalarining ahamiyati	62
Abduraxmon Ochilov. Ta'lim klasteri sharoitida innovatsion maktablarning ta'lim va tarbiya jarayonini takomillashtirish omillari va pedagogik texnologiyalari	64
Nozima Vohidova. Nafaqat atlas: instagram ijtimoiy tarmog'ida milliy qadriyatlar mavzusining yoritilishi	67
Индира Наркулова. Применение искусственного интеллекта при обучении культуре страны изучаемого языка	69
Малика Темирова. Социолингвистические аспекты развития интернета	73
Jahongir Tursunho'jayev. Corpus linguistics as a branch of applied linguistics	75

TADQIQOTLAR

Axat Azamatov. Amaliy matematika fanining mazmuni haqida	78
Kamola Raxmatjonova. Hindiy va o'zbek tillarida gapda so'zlarni bir-biriga bog'lovchi vositalar xususida	80
To'liqin Mardiyev. O'zbek badiiy matnlarida vatan konseptining semantik jihatlari	83
Dilnoza Jumayeva. O'zbek tilida tinish belgilarining morfologik va sintaktik xususiyatlari	85
Nargiza G'oyibnazarova. Boshlang'ich ta'limda fanlar integratsiyalashuvida kreativ fikrlash	88
Sojida Axadova. Ispan va o'zbek tillarida yuridik terminlarning semantik-strukturaviy tahlili	90
Niginabonu Ne'matova. Xitoy va o'zbek tillarida monooperatorli to'siqsiz ma'noli murakkab sintaktik qurilmalar derivatsiyasi	92
Adiba Ma'diyeva. O'zbek va nemis zamonaviy she'riyatida yulduz obrazi interpretatsiyasi	95
Dilfuza Shadiyeva. G'afur G'ulom – folklorshunos	97
Dilfuza Shoymardanova. O'zbek adabiyotida badiiy nutqning sotsiopragsmatik talqini: Erkin Vohidov ijodi misolida	99
Ziyoda Mirusmanova. Romantik orientalizm: Bayronning "Giaour" poemasi adabiy-falsafiy yondashuv	101

Zumriniso Kozimova. "Alanga" jurnalida teatr masalasining yoritilishi	105
E'tibor Ortigova. Jaloliddin Rumi she'rlarida avtopsixologik holat va inson ruhiyati motivi	108
Lola Alibayeva. XX asr rus adabiyotida postmodernizmning o'rni va ahamiyati	111
Shohsanam Ermanbetova. Habib Sa'dulla ijodida poetik nido san'ati	114
Dilnora Madumarova. "Manyoshu" – o'ng ming barglar to'plami	116
Hulkar RAJABOVA. Realistik qissalarda nutqiy detallarning badiiy maqsadi, vazifasi va ahamiyati	118
Dilafuz Doniyeva. Ingliz tilida qo'rquv hissini ifodalovchi frazeologizmlarning kognitiv belgilariga ko'ra guruhlanishi	121
Maxfuza Qobilova. XX asr ingliz tilshunoslari tomonidan stilistik vositalarning tasnifi	123
Mohira UMARALIYEVA. Temperament tiplariga asoslangan individualizatsiyalangan yondashuvlar orqali ingliz tilida gapirish ko'nikmasini rivojlantirishning psixolingvistik asoslari	127
Muhayyo Hamrayeva. O'quv matnlarini modellashtirish asosida o'quvchilarni bog'lanishli nutqdan foydalanish usullari	129
Dilsora Zokirova. Ingliz va o'zbek tillarida somatik obyektlarning paremiologik matnlarda voqelanishi	131
Nargiza Salamova. Talabalarda madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirishning muhim omillari	133
Madina Rashidova. Zamonaviy badiiy madaniyat yoshlar nigohida	136
Otabek Qodirov. Jismoniy tarbiyaning yoshlarning ijtimoiylashuv jarayoniga ta'siri	138
Mariya Musurmonova. Rumi falsafasining bugungi ta'lim jarayonidagi o'rni	141
Gulhayo Boymurodova. Ingliz va o'zbek tillarida mehnat mazmunli maqollarning leksik-semantik asosi	143
Maxmuda Yuldasheva. Lirik asarlar tahlilida evristik yondashuvdan foydalanish usullari	146
Kamola Allanazarova. O'zbek shoirlari ijodida xotin-qizlar ta'limi masalalari	150
Malika Rustamova. Emotsionallikni ifodalovchi frazeologik birliklarning tarjimai: muammolar va yechimlar	152



Maxmuda YULDASHEVA,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti,

Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti innovatsion loyiha ijrochisi
E-mail: mahmudauldaseva@gmail.com

LIRIK ASARLAR TAHLILIDA EVRISTIK YONDASHUV DAN FOYDALANISH USULLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada adabiyot darslarida o'quvchilarni ijodkorlikka, tafakkur qilishga va mustaqil fikrlashga o'rgatish jarayonlari, o'qitishning evristik usullari, lirik asarni evristik tahlil etish yo'llari hamda adabiy ta'lim berish jarayonida evristik usullarni qo'llashning asosiy mohiyati, shuningdek o'quvchilarning bilimlarini kashf etish bilan birgalikda ularni izlanishga o'rgatish usullari, evristik usullar asosida tuzilgan topshiriqlar va mashqlar o'quvchilarda tashabbuskorlik bilan birgalikda quyidagi layoqatlarni, ya'ni mustaqillik, epcchilik, qarorlar qabul qilish kabi qobiliyatlarini samarali shakllantirish imkonini berishi tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: *lirika, ijodkorlik, ijodiy faoliyat, evristik usul, evristik yondashuv, zamonaviy pedagogika, ijodiy faollik, evristik ta'lim, ijodiy topshiriq, o'yinlar.*

Аннотация: в статье анализируются процессы обучения учащихся творчеству, рефлексии и самостоятельности на уроках литературы, эвристические методы обучения, способы эвристического анализа лирических произведений, основная суть использования эвристических методов в процессе литературного образования, а также методы обучения учащихся поиску и открытию своих знаний, и то, как задания и упражнения, основанные на эвристических методах, эффективно формируют у учащихся такие компетенции, как инициативность, самостоятельность, ловкость и принятие решений.

Ключевые слова: текст песни, творчество, творческая деятельность, эвристический метод, эвристический подход, современная педагогика, творческая деятельность, эвристическое образование, творческое задание, игры.

Annotation: the article analyzes the processes of teaching students creativity, reflection and independence in literature lessons, heuristic teaching methods, methods of heuristic analysis of lyrical works, the main essence of using heuristic methods in the process of literary education, as well as methods of teaching students to search for and discover their knowledge, and how tasks and exercises based on heuristic methods effectively form such competencies in students as initiative, independence, dexterity and decision-making.

Key words: *song lyrics, creativity, creative activity, heuristic method, heuristic approach, modern pedagogy, creative activity, heuristic education, creative task, games.*

Yurtimizdagi ta'lim-tarbiya tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar bir-ikki yillik yoki qisqa vaqt ichida samaraga erishishga qaratilgan ish emas, balki bir necha yuz yillarga tatiydigan o'zgarish bo'ldi, desak xato bo'lmaydi. Ma'lumki, ta'limda ilg'or pedagogik, yangi axborot texnologiyalarini tatbiq etish, o'quv mashg'ulotlarining samaradorligini oshirish bilan bir qatorda, ilm-fan yutuqlarini amaliyotda qo'llash orqali mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, har tomonlama barkamol yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Milliy adabiyotimiz metodikasida she'riy janrlar, lirik asarlar tadqiqiga oid ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Sababi, bizning adabiyotimiz tarixi lirik asarlar tarixi desak, mubolag'a qilmagan bo'lamiz. Chunki mumtoz adabiyotimizdagi g'azallar ming yillar davomida adabiyotimizning butun kuch va qudratini, tilimizning tarovatini namoyon etib kelayotganligi buning yorqin dalilidir.

Lirik asarlarni o'qish, tahlil qilish o'qituvchidan ham, o'quvchidan ham ijodiy mahorat talab qiladi. Ko'p hollarda

she'rga oddiy matn nuqtayi nazaridan yondashiladi. Bu kabi holatlarda she'riy san'at inson hissiyoti bilan bog'liq ekanligi unutiladi, satrlar, so'zlar ma'nosi she'ringa zamirida yashirin ekanligi anglab yetilmaydi, buning oqibatida esa o'quvchilar she'rdagi obrazlilikning mag'zini chaqa olmaydilar. Zero, har qanday asardagi yashirin ma'noni o'qish mehnattalab ishdir. Bularsiz hatto adabiy ta'limning maqsadi ham amalga oshmaydi.

Badiiy asarlarni o'rganish va tahlil qilishda kuzatish, dalillash, umumlashtirish, baholash, shartlilik, qiyoslash, psixologik asoslanganlik kabi ilmiy-tadqiqot metodlaridan samarali foydalanib kelinadi. Bu metodlardan tashqari ilmiy bilishga, tafakkur va aqliy zakovatga yo'naltirilgan "Sharhlash", "Adabiy o'qish", "Aql xaritasi", "Ilmiy faraz", "Tadrijiy tahlil" kabi usullardan lirik asarlarni tahlil qilishda foydalanish ijobiy samara beradi.

Lirik asarlarni o'rganish haqida metodist olim Qozoqboy Yo'ldoshev quyidagi fikrlarni ilgari suradi: "Lirik turdagi asarlar uchun asosiy narsa tuyg'u va hissiyotga yo'g'rilgan hayotiy hikmat ifodasini berishdir. Lirikada

voqealar tasviri, xarakter mantig'i emas, ruhiy holat tasviri, hissiyot ifodasi, tuyg'ular samimiyati muhimdir. Chinakam lirik she'r tinglovchi yoki o'quvchiga faqat zavq beribgina qolmay, uning emotsional-axloqiy imkoniyatlarini uyg'otadi, faoliyatga undaydi" [Yo'ldoshev, 1997:235].

Lirik asarlarni tuyish, shoir hissiyotlarini o'zida his qilish haqida Boqijon To'xliyev ham: "She'riy asarni anglash, undagi muallif ko'zda tutgan niyatni, maqsad va vazifalarni tushunib yetish, she'r g'oyasining mag'zini chaqish uni uqishdan, yanada aniqrog'i, ifodali o'qishdan boshlanadi"[To'xliyev, 2006:80], – deydi.

Darslik tuzish murakkab, katta kuch va bilim talab qiladigan jarayon bo'lishi bilan birgalikda, yetishib kelayotgan yosh avlodning tarbiyasiga ta'sir qiluvchi mas'uliyatli ish hamdir. Darslik bilan bir qatorda o'qituvchilar ham o'z bilimlarini, dars o'tish mahoratlarini yangilab borishlari maqsadga muvofiq. Bugungi kunda adabiyot darsliklarining yangidan chop etilishi biz uchun juda katta yangilik bo'ldi. Necha yillardan buyon bizning ta'lim tizimida jahon standartlariga mos keladigan, o'quvchilarni ijodiy hamda kreativ fikrlashga undaydigan topshiriqlar bilan boyitilgan darsliklarga ehtiyoj katta edi. Mazkur chop etilgan darsliklarda adabiyot fani doirasida o'quvchilarda rivojlantiriladigan tayanch kompetensiyalar to'g'ri shakllantirilganligiga guvoh bo'lmoqdamiz. Respublikamizning ijod maktablari uchun tuzilgan dasturda xalq og'zaki ijodi, mumtoz va zamonaviy adabiyot, shuningdek, jahon adabiyotiga mansub bo'lgan xilma-xil lirik asarlarni o'rganish ko'zda tutiladi. Jumladan, 7-sinfda Saida Zunnunovaning "Surat bilan suhbat" lirik dostoni, Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror" dostoni, Uvaysiy g'azallari, Zavqiy, Maxtumquli, Abdulla Qodiriy she'rlari; 8-sinfda "Ravshan" dostoni, G'afur G'ulom she'rlari, Lutfiyning g'azal va tuyuqlari, Alisher Navoiy g'azallari, Mirtemirning "Surat" lirik qissasi, Fitrat she'rlari, Usmon Nosir, To'ra Sulaymon, Muhammad Yusuf she'rlari; 9-sinfda Z.M.Bobur g'azallari, Cho'lpon, Oybek, Shavkat Rahmon, Usmon Azim, Halima Xudoyberdiyeva, Abduvali Qutbiddin, O'ljas Sulaymon she'rlari; 10-sinfda Jaloliddin Rumiy she'riyati, Mashrab g'azallari, A.S.Pushkin lirikasi, Ogahiy, Zebunniso, Nodira, Muqimiy, Furqat g'azallari, Berdaq, Ajiniyoz she'rlari, XX asr jahon va o'zbek she'riyati namunalaridan Aleksandr Blok (Rossiya), Pol Elyuar (Fransiya), Gabriela Mistral (Chili), Alfonsina Storni (Argentina), Federiko Garsia Lorka (Ispaniya), Ernest Xemingvay (AQSh), Botu (O'zbekiston), Slavko Yanevskiy (Makedoniya), Elbek (O'zbekiston), Dzyun Takami (Yaponiya), Nozim Hikmat (Turkiya), Bemar Bua Dade (Kot d'Ivuar (G'arbiy Afrika)), Shokarim Xudoyberdiyev (Qozog'iston), Bertold Brext (Germaniya), Furug' Farruxzod (Eron), Uuno Kaylas (Finlandiya); 11-sinfda Hamid Olimjon, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Rauf Parfi, Faxriyor she'rlari berilgan. Yuqorida keltirib o'tilgan badiiy ijod namunalaridan ko'rinadiki, mazkur darsliklarda lirik turga mansub bo'lgan xilma-xil janrlarga

mansub asarlar taqdim etilgan. Ayni paytda ushbu sinflarda liro-epik janrga mansub dostonlardan namunalarni o'rganish ham ko'zda tutilgan. Shuning uchun ham bu janrlarning har biriga mos usullar, ijodiy topshiriqlarni to'g'ri tanlab, maqsadli yondashilishi zarur bo'ladi, aks holda ko'zda tutilgan badiiy-estetik samara olinmasligi mumkin. Adabiyot darslarida shoir tomonidan tanlangan janrlarning o'ziga xos xususiyatlari tushuntirilmasa, o'quvchilar mazkur asarlarning badiiy-estetik mohiyatini, mavzuning asl mohiyatini hamda ularda ko'zda tutilgan mag'zini chaqa olmaydilar. Natijada mazkur janrlardagi haqiqiy badiiy tarovat yo'qqa chiqadi, ular o'quvchilar ongiga yetib bormaydi, ularning qalblarida betakror his-tuyg'ularning paydo bo'lishiga yordam berolmaydi.

Har bir badiiy ijod namunasi o'quvchining xotirasida saqlanishi uchun she'riy satrlarni ko'r-ko'rona yodlatish emas, balki uni chuqur tahlilga tortib, ifodalangan har bir so'zning jozibasini o'quvchiga his qildirish kerak. Lirik asarlarni o'rganish va tahlil qilishda bir qator samarali usullarni qo'llash mumkin.

"Zehnli o'quvchi" topshirig'i. Bu topshiriqni ijod maktablarining 8-sinf adabiyot darsligida berilgan G'afur G'ulomning "Vaqt" she'ri misolida ko'rib chiqamiz:

Avvaldan qog'ozga G'afur G'ulomning "Vaqt" she'rida qo'llangan so'zlar ma'nodoshlariga, zid ma'nolariga yoki paronimlariga almashtirib yozib qo'yiladi. O'quvchilar xotiralariga tayanib, she'rning asl matniga qaramagan holda she'rni "qayta ishlash" topshirig'ini bajarishlari kerak bo'ladi. Topshiriqni bajarishda ko'chirmakashlikka yo'l qo'yilmasligi uchun o'quvchilarga she'r satrlari taqsimlab beriladi.

She'ning so'zlari almashtirilgan varianti	She'ning asl matni
Lola ochilguncha o'tgan lahzani, Kamalak umriga qiyos etgulik, Bazida bir nafs olgulik fursat - Ming yulduz portashi uchun yetgulik.	Guncha ochilguncha o'tgan fursatni Kapalak umriga qiyos etgulik, Bazida bir nafas olgulik muddat - Ming yulduz so'lishi uchun yetgulik.
Yashash soatining tilla kapgiri Har borib kelishi bir olam kamon. Osmon shu damda o'z kurrasidan Yasab chiqi olur yangidan olam.	Yashash soatining oltin kapgiri Har borib kelishi bir olam zamon. Koinot shu damda o'z kurrasidan Yasab chiqi olur yangidan jahon.
Yarim vaqt ichida tug'ilib, o'sib, Yashab, umr ko'rib o'tguvchilar bor. Ko'z ochib yumguncha otgan dam - qimmat, Bir lahza mazmuni bir butun bahor.	Yarim soat ichida tug'ilib, o'sib, Yashab, umr ko'rib o'tguvchilar bor. Ko'z ochib yumguncha otgan dam - qimmat, Bir lahza mazmuni bir butun bahor.
Bir onning bahosini o'tchamoq uchun Oltindantarozi-u, olmosdan mosh oz. Nurlar qadami-la chopgan lahzaning Barini tutolmas ayyahnos ovozi.	Bir onning bahosini o'tchamoq uchun Oltindantarozi-u, olmosdan tosh oz. Nurlar qadami-la chopgan sekundning Barini tutolmas ayyahnos ovozi.

Shuni unutmaslik kerakki, topshiriqda barcha o'quvchilar oldiga qo'yilgan vazifa bir xil, ammo sinfdagi o'quvchilarning saviyasi har xil. Tabiiyki, topshiriqni hamma bir xilda to'g'ri bajara olmaydi. Bunday holda qo'shimcha topshiriqlar berish orqali mashq shartini soddalashtirish yo'li

bilan o'quvchilarni qiziqitirish mumkin. Mazkur topshiriq orqali o'quvchilarning tafakkurini, xotirasini hamda lug'at boyligini rivojlantirishda ular nutqini narsa va shaxslarni bildirgan so'zlar bilan boyitish ham muhim rol o'ynaydi.

Darslikda o'rganilayotgan shoir ijodida berilgan tabiat tasviri, undagi o'zgarib turuvchan hodisalar tahlilida turli ijodiy topshiriqlarni qo'llash mumkin. Buning uchun esa o'qituvchi she'r mazmuniga oid obrazlilikni ochiqlashga, anglashga doir usullarni to'g'ri ta'minlashi kerak. Masalan, tabiat haqidagi she'rlarni tahlil qilish jarayonida o'qituvchining asosiy vazifasi o'quvchida she'riyatni sevisish hamda unga qiziqish uyg'otish bilan birga tabiatga mehri qilib tarbiyalash mazmuniga e'tibor qaratishidir. Ijod maktablari uchun nashr etilgan darsliklarda tabiat lirikasi tasviri quyidagi shoirlar ijodida uchraydi: 8-sinfda Usmon Nosirning "Dengizga" she'ri (mustaqil mutolaa uchun), To'ra Sulaymon "Iltijo" she'ri, Oybekning "Na'matak" she'ri, Shavkat Rahmon "Tong ochar ko'zlarin", "Tungi manzara" she'rlari, Pushkinning "Dengizga" elegiyasi, Furqatning "Fasli navbahor o'ldi" g'azali, Uuno Kaylasning "Tog'dan sirpanish" she'ri, Dzyun Takamining "Daraxt" she'ri, Gabriela Mistral

estetik zavq bag'ishlashi bilan birga she'r mazmuni ichiga kirishiga, hatto matnni qayta-qayta tinglash, murojaat qilish orqali osongina yod olishiga ko'mak beradi.

Lirik asarlarni o'rgatishning bir nechta qulay va samarador usullarini tavsiya etamiz:

1-usul: **"Sochma bandlar"** usuli. Bu usulda biror-bir she'r bandlari qog'ozga yoziladi. O'quvchilarga mazmuniga qarab she'rni butun holatiga keltirib, terib chiqish topshirig'i beriladi. Topshiriqni to'g'ri bajargan o'quvchi rag'batlantiriladi. Mazkur usul orqali o'quvchilarda so'zlarning nozik qirralarini anglash, jozibasini his etish ko'nikmasi shakllanadi.

2-usul. Bu usulni chorak yakunidagi takrorlash, mustahkamlash darslarida qo'llash samara beradi. Sinf taxtasiga chorak davomida o'tilgan shoirlar nomlari yozib qo'yiladi. **"She'riyat sandiqchasi"**ga ushbu shoirlar qalamiga mansub she'rlardan parchalar yozilgan kartochkalar solib qo'yiladi. O'quvchilar navbati bilan kartochkalarni oladilar va muallif nomi tagiga yopishtiradilar.

3-usul. **"Qiyoslash jadvali"** orqali she'r shakli va mazmuni ustida ishlanadi. Bu usulda o'quvchilarga quyidagi kabi jadval tushirilgan qog'ozlar tarqatiladi.

She'rga xos xususiyatlar	O'zbek adabiyotidan Shavkat Rahmonning "Tong ochar ko'zlarin..." she'ri	O'zbek adabiyotidan Usmon Azimning "Tong titraydi kech kuzakning quchog'ida" she'ri
She'rdagi jonlantirish, shaxslantirish, o'xshatish	ochar ko'zlarin, yig'laydi, jilmayar, cho'milar, tarqalar	titraydi, o'chirmoqda, o'ldirgusi.
She'rda ustuvorlik qiladi...	Tabiat tasviri	Hayot haqiqati
She'r misralarida bosh harf qoidasiga amal qilingan/qilinmagan	Amal qilinmagan	Rioya qilingan
She'r ... misradan tashkil topgan	16 misra	24 misra
She'r ... bo'g'inlardan tuzilgan	9 bo'g'inlik	12 bo'g'inlik
Lirik asar turi	Ijtimoiy (publitsistik) lirika	Ijtimoiy (publitsistik) lirika

"Ohista-ohista yog'adi yomg'ir" she'ri, Hamid Olimjonning "O'rik gullaganda", "Holbuki tun..." she'rlari, Rauf Parfining "Tong otmoqda", "Bir qushcha sayraydi mening ruhimda...", "Yomg'ir yog'ar..." she'rlari. Ijodkoming asosiy maqsadi va vazifasi o'quvchini she'rda tasvirlanayotgan manzaralarni his qilish, ichiga kirishiga yo'l ochishdir. Ma'lumki, ifodali o'qish orqali she'ming asosiy ohangini tushunishga, shoir uyg'otmoqchi bo'lgan his-tuyg'ularni anglab yetishga erishiladi. She'r mazmunini chuqur anglashning yana bir yo'li esa o'quvchilarga o'rganilayotgan lirik asar mavzusi, motivlariga mos keladigan, umumiy mushtaraklik jihatlarga ega bo'lgan musiqiy yoki tasviriy namunalarni topishlari topshiriq sifatida beriladi. Mazkur jarayonda o'quvchilar tomonidan lirik asarlarga mos musiqiy audiogalereya yoki tasviriy san'at namunalardan maxsus videogalereya tayyorlanadi. Bu o'quvchilarga

Bu topshiriqni bajarish jarayonida o'quvchilar she'r matnining g'oyasi, mazmuni, shakli, lirik asarning qaysi turga mansubligi haqida to'liq ma'lumotga ega bo'ladi.

4-usul. **"Meni tanla"** o'yini. Ushbu o'yinda o'qituvchi tomonidan sinf taxtasiga so'zlar yozib qo'yiladi. So'ngra o'quvchilarga she'riy satrlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi va berilgan so'zlar ichidan tushib qolgan so'zlarni topib yozish topshirig'i beriladi. Bu o'yinni 9-sinfda o'tiladigan Oybek she'riyati misolida ko'rib chiqamiz. Masalan, sinf taxtasiga quyidagi so'zlar yoziladi:

Poyida, telbaday, kunduzlar, separ, uchadi, visoling, yugurar, vasling, yulduz, o'ralib, chehrang, quyosh, yirtadi, xayol, bog'lanib, gulgun.

Qog'ozlarga yozilgan satrlar:

1. yig'laydi kumush qor yum-yum,
Nafis chayqaladi bir tup na'matak.

Shamol injularin chashmadak,
Boshida bir savat oq – chechak,
Nozik salomlari naqadar ma'sum.

2., olting cho'kkanday cho'kar sevinchim,
Sinadi ichimda umidning tosi,
Qalbimni uning sadosi,
Yupatmas, na sevgi ro'yosi,
Yuramen, oqshomga singadi izim.

3. Daryolar singari ko'nglim jo'shqindir,
Bir tola soching-la qoldi.
.....ga yetganim na go'zal kundir,
Ayriliq siynamga yong'inlar soldi.

4. Kechalar yururmen horib,
Boshimda oy borur, manga hamqadam.
Xayollar mash'alday yonib,
To'yib yozajakmen bir kun sog'aysam.

Bu o'yindan nafaqat o'tilgan lirik asarlar bo'yicha takrorlash darslarida, balki epik asarlarni mustahkamlashda foydalanish mumkin. Bu usul orqali o'quvchilar xotirasi sinaladi va topqirligi oshiriladi.

Adabiy ta'limda lirik asarlarni evristik yondashuv usullari orqali o'rganish – o'quvchilarning ilmiy-ijodiy tafakkurini boyitadi, yangi kashfiyotlar qilishga, ijodiy fantaziyalarining shakllanishiga xizmat qiladi. Demak, xulosa qilish mumkinki, ijodkorlik o'quvchilarni bilim olishga undaydi. Sababi o'quvchilar ijodiy maqsad sari yo'naltirilgan bo'lsa, ular o'qishga ko'proq diqqatli bo'lishadi va unga erishish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni egallashga intiladi. Chunki kreativlik bilan yondashilgan yoki kreativlikka asoslangan vazifa o'quvchilar uchun har doim qiziqarlidir. Evristik yondashuvga asoslangan ijodiy jarayon juda ko'p sinov va xatolarni o'z ichiga oladi. Sababi mazkur yozdashuv asosida tuzilgan topshiriqlarni bajarish jarayonida natija qanday yakunlanishini bilib bo'lmaydi. Chunki har bir o'quvchida ijodkorlik, dunyoqarash, kashfiyotchilik qobiliyati har xil darajada bo'ladi. Shunga ko'ra izlanishlar natijasi ham turfa xillikni kasb etadi. Bu esa o'quvchilarda chidamlilikni oshiradi, ularni muvaffaqiyatga erishish uchun qiyinchiliklarni yengishga o'rgatadi. Ijodkorlik o'quvchilarga bir-birlaridan yangi narsalarni o'rganish va o'rgatish erkinligini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yo'ldoshev Q. Yangilangan pedagogik tafakkur va umumta'lim maktablarida adabiyot o'qitishning ilmiy-metodik asoslari. – Toshkent, 2006. Avtoreferat.
2. Husanboyeva, Q., Niyozmetova, R. Adabiyot o'qitish metodikasi. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020.
3. Хусанбоева Қ.П. Адабий таълим жараёнида ўқувчиларни мустақил фикрлашга ўргатишнинг илмий-методик асослари: Пед. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 2006.
4. Husanboyeva Q., R.Niyozmetova. Adabiyot o'qitish metodikasi/o'quv qo'llanma: "Innovatsiya-Ziyo": nashriyoti, 2020-yil.
5. 8-sinf adabiyot darsligi (I qism) darslik/J.Nurmuhammadov va boshqalar. – Toshkent: "Adast poligraf", 2022.
6. 8-sinf adabiyot darsligi (II qism) darslik/J.Nurmuhammadov va boshqalar. – Toshkent: "Adast poligraf", 2022.
7. 9-sinf adabiyot darsligi (I qism) darslik/J.Nurmuhammadov va boshqalar. – Toshkent: "Colorpack", 2022.